

O'QUVCHI XULQIDAGI SALBIY O'ZGARISHLARNING OLDINI OLISHDA PEDAGOG XODIMLAR HAMKORLIGINI TO'G'RI YO'LGA QO'YISH

Topilov Shavkat Abduvoxidovich

Toshkent viloyati Ohangaron tumani

Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi

metodist-psixologi. Telefon 93-518-25-24

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilar xulq-atvorida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlarning oldini olishda pedagog xodimlar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati yoritilgan. Maktab ma'muriyati, sinf rahbari, fan o'qituvchilari va maktab psixologi o'rtasidagi uzviy hamkorlik orqali o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muammolarni erta aniqlash va samarali profilaktik ishlarni tashkil etish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: o'quvchi xulqi, salbiy xulq-atvor, pedagogik hamkorlik, maktab psixologi, profilaktika.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning xulq-atvorida salbiy o'zgarishlarning ko'payib borayotgani pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qo'yimoqda. O'quvchi xulqidagi tajovuzkorlik, intizomsizlik, darsga qiziqmaslik, muloqotdagi qiyinchiliklar kabi holatlar faqat bitta pedagogning sa'y-harakati bilan bartaraf etilishi qiyin. Shu sababli pedagog xodimlar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish dolzarb masala hisoblanadi.

O'quvchi xulqidagi salbiy o'zgarishlarning sabablari:

Salbiy xulq-atvorning kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo'lishi mumkin.

Jumladan:

- oilaviy muhitdagi muammolar;
- ota-onalar e'tiborining yetishmasligi;
- tengdoshlar bilan nizolar;
- psixologik bosim va stress holatlari;
- pedagogik e'tiborsizlik.

Mazkur omillarni aniqlash va tahlil qilishda pedagog xodimlarning jamoaviy ishlashi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog xodimlar hamkorligining mazmuni:

Pedagogik hamkorlik deganda sinf rahbari, fan o'qituvchilari, maktab psixologi, ijtimoiy pedagog va maktab ma'muriyatining o'zaro muvofiqlashtirilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

o'quvchi xulqini muntazam kuzatish;

muammoli o'quvchilar bo'yicha umumiy tahlil o'tkazish;

individual yondashuvni ishlab chiqish;

ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Maktab psixologining o'rni:

Maktab psixologi pedagogik hamkorlikning markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Psixolog tomonidan:

- diagnostik tadqiqotlar o'tkaziladi;
- o'quvchi xulqidagi salbiy o'zgarishlar erta aniqlanadi;
- koreksion va profilaktik mashg'ulotlar tashkil etiladi;
- pedagoglarga metodik tavsiyalar beriladi.

O'quvchi xulqidagi salbiy o'zgarishlarning oldini olishda pedagog xodimlar o'rtasidagi hamkorlik tizimli va uzluksiz bo'lishi lozim. Jamoaviy yondashuv, o'zaro axborot almashinuvi va birgalikdagi mas'uliyatgina sog'lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada o'quvchi shaxsining ijobiy rivojlanishi ta'minlanadi.

O'qituvchining yangi mavzuni batafsil tushuntirishi, darslar ma'ruza shaklida olib borilishi talabalarni zeriktiradi, ularda o'qishga loqaydlik tug'iladi. Ilgari o'quv materialini ma'nosiga tushunmay yodlab olishga odatlangan o'smir endi zarur o'rinlarni mantiqiy xotira va tafakkurga suyanan holda o'zlashtirishga harakat qiladi, o'zlashtirilgan bilimlarni talab qilinganda o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida anglashilmovchilik paydo bo'ladi, talaba unga qarshilik ko'rsata boshlaydi. Odobli, dilkash o'smir kutilmaganda qaysar, intizomsiz, qo'pol, serzarda bo'lib qoladi.

Kattalarning yo'l-yo'riqlariga, talablariga muloyimlik bilan javob qaytarib yurgan o'smir ularga tanqidiy munosabatda bo'ladi. Uning fikricha, kattalarning talablari, ko'rsatmalari mantiqan ixcham, dalillarga asoslangan, yetarli obyektiv va subyektiv omillarga ega bo'lishi kerak. O'smirda shaxsiy nuqtai nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o'qituvchining qayg'urishi, koyishiga qaramay, o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Uning o'z qadr-qimmatini haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma'lumotlarni tushuntirib berishni yokdirmaydigan bo'lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O'smir xulqidagi bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'quvchiga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar kelib chiqadi.

Maktab yoshi bolaning ijtimoiylashuvi, o'zini anglash va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. So'nggi yillarda o'qituvchilar, psixologlar va ota-onalar maktab yoshidagi bolalar xulqida sezilarli o'zgarishlar kuzatilayotganidan tashvish bildirmoqdalar. Bu o'zgarishlar orasida agressivlik, ijtimoiy ajralish, diqqatning pasayishi, haddan tashqari harakatchanlik va emotsional beqarorlik holatlari mavjud. Mazkur maqolada ushbu xulq-atvor o'zgarishlariga olib kelayotgan asosiy psixologik omillar atroflicha tahlil qilinadi.

Maqolada tahliliy-uslubiy yondashuv qo'llanildi. Ilmiy maqolalar sharhi, zamonaviy psixologik nazariyalar tahlili va ilg'or tajribalar asosida empirik asoslangan xulosalar chiqarildi. Asosiy yondashuvlar qatoriga rivojlanish psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik nazariyalar, texnostress, emotsional intellekt va neyropsixologik omillar kiritildi. Shuningdek, Bolaning Ekologik Rivojlanish modeli (Bronfenbrenner, 2005) asos qilib olindi.

1. Ijtimoiy-psixologik omillar: Oila muhitining beqarorligi, ota-onalarning stress ostida yashashi va bolaning yetarli darajada e'tibor olmasligi uning hissiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi zamonaviy jamiyatda ota-onalarning bandligi, ajralishlar sonining ortishi va oilaviy ziddiyatlar maktab yoshidagi bolalarda tajovuzkorlik va depressiv holatlarning kuchayishiga olib kelmoqda.

2. Texnologik vositalar ta'siri: Smartfonlar, kompyuter o'yinlari va internet kontentining cheksiz oqimi bolalarning e'tiborini pasaytirib, ularni real hayotdagi ijtimoiy aloqalardan uzoqlashtiradi. Bunday texnologik yuklama, ayniqsa, 6–12 yosh oralig'ida bolaning neyropsixik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat texnostress deb atalib, yoshi kichik bolalarda haddan tashqari charchoq, agressiya yoki befarqlik shaklida namoyon bo'ladi.

3. Maktab muhiti va o'qituvchilarning roli: O'qituvchining bolaga bo'lgan yondashuvi, uning emotsional ehtiyojlarini qondirishi yoki mensimasligi, bolaning o'zini qanday tutishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchidan qo'rquv, emotsional yaqinlikning yetishmasligi – bola xatti-harakatida passivlik, isyonkorlik yoki ichki ijtimoiy ajralishga olib kelishi mumkin.

4. Emotsional intellekt va o'zini boshqarish: Bolaning emotsional sohasining yetarli darajada rivojlanmasligi uni o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalashdan mahrum qiladi. Bu esa boshqa odamlar bilan to'qnashuvga olib keladi. Emotsional intellektni rivojlantirish – maktab yoshidagi bolalar uchun psixologik barqarorlikning muhim omili sanaladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar ko'p faktorli, kompleks hodisa bo'lib, uni faqat bitta sabab bilan izohlab bo'lmaydi. Hozirgi davrda pedagog va psixologlarning asosiy vazifasi – bolaning ichki holatini anglash, u bilan emotsional aloqa o'rnatish, salbiy xatti-harakatlar ortidagi muammolarni aniqlash va individual yondashuvni shakllantirishdan iboratdir. Oilada

psixologik salomatlikni ta'minlash, maktabda psixologik xizmatlarni kuchaytirish va texnologiyalardan foydalanishni me'yorlashtirish asosiy choralar sirasiga kiradi.

XULOSA

Maktab yoshidagi bolalarning xulq-atvoridagi o'zgarishlar zamonaviy jamiyatda jadal rivojlanayotgan psixologik va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalardagi agressivlik, befarqlik, diqqat yetishmovchiligi va emotsional beqarorlik kabi holatlar ko'pincha oilaviy muhit, texnologiyalarga haddan ziyod qaramlik, maktabdagi psixologik muhit va pedagogik yondashuvlar natijasida yuzaga keladi. Xulq-atvordagi bunday o'zgarishlarni erta bosqichda aniqlash va unga nisbatan to'g'ri psixologik choralar ko'rish bolaning sog'lom shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bunday holatlarda oilaning barqarorligi, maktab psixologik xizmatining faolligi, o'qituvchining emotsional yondashuvi hamda bolaning emotsional intellektini rivojlantirish muhim omillar sanaladi. Bolaning shaxsiy rivojlanishini qo'llabquvvatlash, ijobiy ijtimoiy muhit yaratish va texnologiyalardan ongli foydalanish orqali salbiy xulqiy o'zgarishlarning oldini olish mumkin. Shunday ekan, maktab va oila hamkorlikda bolalar ruhiy salomatligiga e'tibor qaratib, ularning ijtimoiypsixologik rivojiga zamin yaratishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Kamolova yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomdagi TDPU, 2009.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: Nasaf, 2000.
4. Mahmudov R. Huquq va madaniyat g'Z.S.Zaripov tahriri ostida. – Toshkent, 1993
5. Tadjixanov U., Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 2-tomlik. – Toshkent,
6. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 1998.-182-bet.
7. Ziyo net